



TA'LIMDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH TARIX FANI MISOLIDA

Islamova Q.I.

Chirchiq davlat pedogogika universiteti

Tayanch soʻzlar: pedagogika, taʼlim, tarbiya, axborot texnologiyalari, metodika, raqamli tarix, onlayin arxiv, innovatsion uslub.

Ключевые слова: педагогика, образование, воспитание, информационные технологии, методология, цифровая история, онлайн-архив, инновационный метод.

Key words: pedagogy, education, upbringing, information technologies, methodology, digital history, online archive, innovative method.

Kirish. Hech kimga sir emaski hozirgi globallashgan jamiyatlarda asosiy vazifalardan biri bu taʼlim va tarbiyani toʻgʻri tashkil etishdan iboratdir. Chunki taʼlim va tarbiya toʻgʻri yoʻlga qoʻyilgan jamiyatlarning poydevori mustahkam boʻlib kelajakda yaxshi samarali kadrlarni yetkazib beradi. Prezidentimiz taʼkidlab oʻtganlaridek: “Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohatlar samarasi, avvalambor, yuksak maʼnaviyatli, mustaqil fikrlaydigan, vatanimiz taqdiri va istiqboli uchun maʼsuliyatni oʻz zimmasiga olishga qodir yosh kadrlar safini kengaytirishga bogʻliq”. [1]. Bu maqsadlarning tub zamirida esa albatta taʼlim turadi.

Zamonning shiddatiga mos tezkor fikrlovchi, teran gʻoyalarni izlab topuvchi bundayin kadrlarni yetishtirish uchun pedagogika fanida ham yangi innovatsion uslublardan pedagogik texnologiyalardan foydalanish tobora ommalashib bormoqda. Ayni damda dunyoning turli burchaklarida pedagoglar tomonidan ishlab chiqarilayotgan va yoʻlga qoʻyilayotgan pedagogik texnologiyalar va innovatsion uslublardan foydalanib darslarni tashkil etish yoki ularga biror-bir qoʻshimchalarni qoʻshgan holda oʻziga moslab talqin etish kabi holatlar anchagina koʻpaymoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Pedagogik texnologiyalarning baʼzi turlari har qanday dars mashgʻulotlari va dars faoliyatlari uchun ham toʻgʻri



keladigan bo'lsa, ba'zi bir texnologiyalar maqsadli va bir yo'nalishni talqin etib aynan bir fan uchun ma'qulroq qilib ishlab chiqiladi. Aynan ushbu texnologiyalar ustida ko'plab tadqiqotchilar tajribalar olib borishgan. S. Mirhayitova o'zining "Pedagogik texnologiyalar"[2] nomli o'quv qo'llanmasida, S.A. Toshtemirova. F.Sh. Ilmuradova. M.H. Sa'dullayevalar[3], Y. G'affarov[4], U. Xo'jamqulov, Muslimovlar o'z taqqiqotishlari va ilmiy faoliyatlarida keng yoritib bergan.

"Pedagogik texnologiya" termini birinchi bor pedagogika bo'yicha ishlarda XX asrning 20-yillarida tilga olingan[5]. Ilk bor bu boradagi fikrlar AQSh pedagog olimlari tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, asosiy maqsad bilimlarni egallashda rejalashtirish, boshqarish va ta'minlashni tahlil qilish uchun faoliyatni tashkil etish usulini, odamlar g'oyalar, vositalarni o'z ichiga oluvchi kompleks integral jarayondir. Boshqacha aytadigan bo'lsak, bilim olish jarayonida vaqt, vositalar va insonlarni bir-birlari to'la muvofiqlashtirishni ilmiy asosida yoritib berishdir. Shu o'rinda pedtexnologiya nima? Uning maqsadi, qo'llanish uslublari qanday kabi savollarga to'xtalib o'tsak. Pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiya jarayonini yuksak mahorat san'ati bilan boshqarishdir[6]. Ya'ni bunda pedagog o'quvchilar bilan noan'anaviy darslarni o'tkazgan holda ular bilan yakkamayakka ishlash yoki ta'lim-tarbiya jarayonida o'zining mahoratidan foydalangan holda o'quvchilarni darsga jalb etish va o'quvchilarning darsdagi faoliyatini samaradorligini oshirish uchun qilinayotgan say-harakatlari yig'indisidir.

Muhokama va natijalar. Har bir soha o'zidan kelib chiqqan holda pedtexnologiyalardan foydalanishni yo'lga qo'yadi. Bunda albatta tarix fani ham innovatsion yondashuvlar orqali chuqur va samarali o'rganilishi tadbiiq etilmoqda. Tarix ta'limi tizimida har bir dars, mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor, ya'ni, o'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya-bu yakka tartibdagi jarayon bo'lib, u o'qituvchi talabaning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan natija berishga qaratilgan pedagogik jarayondir[7]. Bunda ma'lum bir mavzu yuzasidan chuqur o'rganishni pedagog va uning o'quvchilari tomonidan tanlov natijasiga ko'ra amalga tadbiiq etilishi nazarda tutiladi.

Misol tariqasida quyida bir nechta metodlarni keltirib o'tamiz. Muammoli vaziyat metodida ta'lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish, ularning yechimini topish bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan metoddir. Muammoli vaziyat metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta'lim oluvchilarning bilim darajasi va yoshiga mos kelishi lozim. Ular qo'yilgan muammoning yechimini topishga qodir bo'lishlari kerak aks holda yechimini topa olmagach ta'lim oluvchilarning qiziqishlari so'nishi va o'z navbatida o'zlariga bo'lgan ishonchlarini so'nishiga



ilmiy yangiliklar yaratilishiga sabab bo'layotganligiga guvoh bo'lmoqdamiz. Shu jumladan tarix fanida zamonaviy texnologiyalar tarixchini yanada qiziqarli va mazmunli izlanishlar olib borishga undamoqda.

Tarix darslarida bugungi kun talablaridan kelib chiqqan innovatsion va dolzarb yondashuvlarni tadbiiq etish maqsadga muvofiqdir. Darsda mumkin bo'lgan yondashuvlar:

- shaxsga yo'naltirilgan;
- faoliyat;
- tizim;
- innovatsion va ijodiy. [8].

Ya'ni pedagog shu yo'nalisahlardan biriga murojaat etgan holda aynan mavzuning bir tomonini ko'proq yoritib berishga e'tibor qaratadi. Yo'nalishni esa mavzu doirasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiqdir. Aytaylik biz o'tayotgan mavzuda yorqin tarixiy shaxslar bo'lishi mumkin. Shaxsga yo'naltirish yondashuvi bizga aynan qo'l keladi.

Tarixiy ma'lumotlarni saralash, ajratish, aniqlik kiritish bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarda zamonaviy texnologiyalar juda yaxshi ko'makchi bo'lishi mumkin. Oxirgi paytlarda raqamli tarix atamasi tez-tez uchrab turibdi. Xo'sh bu raqamli tarix deganda nimani tushunishimiz kerak? Raqamli tarix bu tarixchilarning arxiv materiallarini raqamlashtirish va ularni internetga kirish imkoni bo'lgan foydalanuvchilarga taqdim etish uchun zamonaviy kompyuter va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishi tushuniladi.[9] Raqamli tarix onlayn ma'lumotlar bazasiga havolalar beradi, raqamli tarixchilarning ilmiy sohada rolini tushuntiradi va hozirgi zamonaviy ilm-fanda tarixchi nimalarga tayyor turishi kerakligi tushuntirib o'tadi. Keng ma'noda bu tushunchaga ilmiy aniq ta'rif bo'lmasada, umumiy qabul qilingan tushunchalarga muvofiq tarixiy dalillarni to'plash, miqdorini aniqlash, talqin etish va baham ko'rishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish nazarda tutiladi.

Raqamli texnologiyalarni qo'llash ta'lim tizimini yanada rivojlantirish bilan bir qatorda, pedogog va o'quvchi-talabalarni ko'proq mustaqil fikrlashga, birgalikda hamkorlik qilgan holda dars mashg'ulotlarini olib borishni ham nazarga tutadi. Chunki dars jarayonlarida qaysi pedogogik metodni qo'llash, innovatsion texnologiyalardan foydalanishda qanday yondashish, e'tiborni ko'proq mavzuning qaysi jihatlariga qaratish kabimasalalar bevosita pedogogning o'ziga borib taqaladi. Ta'lim tizimida yangi texnologiyalar pedogogik jarayoni hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol metodlardan to'liq foydalaniladi[10]. Bu usullarning ahamiyatli tomoni o'qituvchi-pedogog bilan bir qatorda o'quvchi-



talabalar birgalikda faoliyat ko'rsatishidir. Ya'ni dars mashg'ulotlari davomida tinglovchi sifatida o'quvchilar ham o'z fikr-mulohazalarini erkin bayon etishi, darsning olib borilishi va mazmuniga ta'sir o'tkaza olishi mumkin.

Raqamli tarixning eng katta yutuqlaridan biri onlayn arxiv bo'lib, unda izlanuvchi olimlar tartibga solingan hujjatlar orasidan o'ziga kerakli ma'lumotlarni qisqa vaqt ichida olib foydalanishi mumkin bo'ladi. Onlayn videolar orqali keng ommani tarixga qiziqishini orttirib ilm olishga qiziqtirish imkoni ham katta. Ijtimoiy tarmoqlar orqali qisqa va qiziqarli videolar qo'yish zamonaviy ilm oluvchilarni jalb etishi turgan gap. XX asrning 80-90-yillarida tarix fanida kompyuterlardan ilmiy ishlarni terish va tahrirlash ishlarida foydalangan bo'lishgan bo'lsa, keyinchalik manbalar bilan ishlashdagi yangicha uslublarda ham qo'llana boshlandi[11]. Manbalar matnlari va boshqa tasvirlar skanerlar yordamida kompyuter xotirasiga kiritila boshlandi, ayni vaqtda optik disklarning paydo bo'lishi bilan kompyuterlarning juda katta hajmga ega ma'lumotlarni saqlash imkoniyati oshib bordi. 1986-yilda "tarixchi va kompyuter" nomli xalqaro assatsatsiya tuzildi va 1992-yilda uning tarkibiga bir qator MDH davlatlari tarixchilari ham kiritildi. Texnologiyalar zamonaviylashib hozirgi kunga kelib har qanday inson o'zi yoki bajariyotgan ishlari haqida istalgan joydan turib internet orqali ma'lum qilishi mumkin. Tarixchi olim shaxsiy ijtimoiy tarmoqlari orqali olib borgan izlanishlari haqida ommaga xabar berishi mumkin. O'z navbatida bu ma'lumotlardan boshqa izlanuvchilar ham foydalanish imkonini beradi. Dunyo bo'ylab izlanuvchi olimlarning hamkorligini mustahkamlash ishlarini ham raqamli tarix orqali samarali olib borish mumkin.

Hamma soha va tarmoqlarni raqamlashtirish bugun barcha rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda jadallik bilan olib borilmoqda. Ayniqsa, pandimiya sharoitida bu kabi zamonaviy texnologiyalar yordamida masofadan ishlash imkoniyatiga katta ehtiyoj tug'ildi. BMT tomonidan keltirilgan ma'lumotga ko'ra, 2022-yilga kelib, dunyo bo'yicha yalpi ichki mahsulotning qariyb chorak qismi raqamli texnologiyalarga bog'liq bo'lib qolishi prognoz qilinayotgan hozirgi sharoitda, bu yo'nalishdagi ishlarni jadallashtirish va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish eng to'g'ri strategik yo'nalish hisoblanadi. Albatta dunyo iqtisodiyotning chorak qismi chakana ko'rsatkich emas, bundan tashqari bu ko'rsatkichlar kundan-kunga o'sib borayotganligiga hammamiz guvohmiz. Shunday ekan biz uchun eng samarali yo'l tez orada hamma tarmoqlarda raqamli texnologiyalarni joriy etish va undan foydalanishning eng samarali va mahsuldor yo'llarini amaliyotga tatbiq etish hisoblanadi.



Xulosa va takliflar. O'zgarish, rivojlanish eng avvalo ta'limda ro'y beradi. Uni yanada izchillashtirish, takomillashtirish esa zamonaviy pedagoglar zimmasidahi sharaffli burchdir. Zero, kelajak avlodga ta'lim va tarbiya beruvchi pedagoglar zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalana olishlari butun bir ta'lim tizimining rivoji va yuksalishiga xizmat qiladi. O'zligimizni anglashga, vatanimiz o'tmishini o'rganishga qaratilgan tarix fanida ham zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish yosh avlodga moziyni teranroq anglab, buyuk kelajak uchun poydevor yaratishiga zamin hozirlashi shubhasizdir. Bunda esa yuqorida ta'kidlab o'tkanimizdek, eng asosiy vazifa pedagogik texnologiyalardan ta'lim jarayonida samarali foydalana olishimiz zarurdir.

Adabiyotlar:

1. Sh. Mirziyoyev. "Konstitutsiya-erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir". Toshkent - 2017. 22 - bet.
2. S. Mirhayitova. Pedagogik texnologiya. Toshkent-2020. 5-bet.
3. S.A. Toshtemirova. F.Sh. Ilmuradova. M.H. Sa'dullayeva. Tarix o'qitish metodikasi. Toshkent-2023. 169-bet.
4. Y. G'affarov. Tarix o'qitish metodikasi. Toshkent-2023. 154-bet.
5. J. Yo'ldoshev. Tarix o'qitish metodikasi. Toshkent-2023. 108-bet.
6. Y. G'affarov. Tarix o'qitish metodikasi. Toshkent-2023. 154-bet.
7. T.Toyloqov. Raqamli tarix nima? <https://cyberleninka.ru>
8. Ya. X.G'afforov. Tarix O'qitish Metodikasi. Toshkent. Turon-Iqbol-2022. 211-bet.
9. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika Universiteti. Tarix fanining nazariy asoslari. Toshkent -2020. 145-bet.
10. Alimova. D. A. Tarix fani metodologiyasi. Toshkent-2018. 234-bet.
11. Raqamli texnologiyalarning joriy etilishi taraqqiyot poydevori. 27-may 2020. <https://www.mtc.uz/uz/news/1403>

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ularning qo'llanish uslublar va afzalliklari yoritib beriladi. Tarix fanida pedagogik texnologiya va zamonaviy axborot texnologiyalarning ahamiyatiga alohida to'xtalib o'tib amalda qo'llanilayotgan texnologiyalar yoritib berilgan. Ta'lim va tarbiya jarayonida pedagoglarning zamonaviy bilimlarga ega bo'lishlarining zarurati haqida so'z boradi.

РЕЗЮМЕ

В данной статье описаны современные педагогические технологии, способы их использования и преимущества. Акцент делается на значении педагогических технологий и современных информационных технологий в исторической науке. Обсуждается необходимость приобретения педагогами современных знаний в процессе образования и обучения.

SUMMARY

This article describes modern educational technologies, methods of their use and advantages. The emphasis is on the importance of pedagogical technologies and modern information technologies in historical science. The need for teachers to acquire modern knowledge in the process of education and training is discussed.